

RIKU ODAM SAVDOSI YOKI SHUNGA O'XSHASH EKSPLOATATSIYA QURBONLARI UCHUN MAXSUS XIZMAT KO'RSATADI

Quyidagi hollarda bizga murojaat qiling:

- Siz aldov yo'li bilan shunday vaziyatga tushib qoldingizki, undan muammolarga duch kelmasdan chiqib keta olmayapsiz.
- Kimdir sizdan foydalanyapti, masalan, sizga juda oz maosh to'layapti, jinsiy xizmatlar ko'rsatishga majburlayapti, jinoyat sodir etishga undayapti yoki xohishingizga qarshi boshqa narsalarni qilishga yo'naltiryapti.
- Kimdir sizning harakatlaringizni, boradigan joylaringizni, suhbatlashadigan odamlaringizni yoki pulingizni qanday sarflashingizni nazorat qiladi.
- Kimdir sizni o'ziga bo'ysundirishga majburlash maqsadida bosim o'tkazadi yoki tahdid qiladi, masalan, shaxsiy ma'lumotlaringizni oshkor qilish, mamlakatdan chiqarib yuborish, hokimiyat organlariga xabar berish yoki sizni yoxud oila a'zolaringizga zarar yetkazish bilan qo'rqitadi.

- Kimdir sizdan Finlyandiyaga kelishingiz uchun pul oldi, masalan, ish yoki viza uchun
- Siz muntazam ravishda kuniga 8 soatdan ortiq yoki kech soatlarga qo'shimcha haq olmasdan ishlaysiz; haftasiga ° o'rtacha 2 kundan kam dam olasiz yoki sizga haq to'lanadigan kasallik ta'tili yoki yillik ta'til berilmaydi.
- Siz nikohingiz yoki munosabatingizdan chiqib ketganingizda kimdir sizga zarar yetkazishidan qo'rqasiz, yoki siz bu munosabatga majburlab kiritilgansiz.

Agar bularning birontasi haqiqat bo'lsa yoki siz o'zingiz yoki yaqiningiz odam savdosi yoxud shunga o'xshash boshqa sabablarga ko'ra ekspluatatsiya qurboni bo'lgan deb shubhalansangiz, iltimos, bizga telefon orqali qo'ng'iroq qiling yoki xabar yuboring:



+358 40 632 9293

raqamiga qo'ng'iroq qiling yoki

help@riku.fi elektron pochta manziliga xat yozing



RIKOSUHRIPÄIVYSTYS
VICTIM SUPPORT FINLAND

Finlyandiya jabrlanuvchilarni qo'llab-quvvatlash tashkiloti (RIKU)

jinoyat qurbonlariga, ularning yaqinlariga va jinoyat guvohlariga yo'l-yo'riq ko'rsatadi hamda qo'llab-quvvatlaydi.



ONLAYN



TELEFON
ORQALI



YUZMA-YUZ

Agar quyidagi holatlar yuzaga kelsa, maslahat va yordam olish uchun Finlyandiya jabrlanuvchilarni qo'llab-quvvatlash tashkilotiga (RIKU) murojaat qiling:

- siz jinoyat qurboni bo'lgan bo'lsangiz yoki shunday deb gumon qilsangiz
- jinoyatning guvohi bo'lgan bo'lsangiz
- yaqin kishingiz jinoyat qurboni bo'lgan bo'lsa

Xizmatlarimiz mutlaqo maxfiy hisoblanadi. Jinoyat haqida xabar berish yoki bermaslikni o'ylayotgan paytingizda ham, hatto anonim tarzda, bizga murojaat qilishingiz mumkin. Biz sizga bu nima ma'no anglatishi haqida ma'lumot berishimiz va agar qaror qilsangiz, jinoyat haqida xabar berishingizda yordam ko'rsatishimiz mumkin.

Iltilmos, e'tibor bering:

- Sizning ruxsatingizsiz siz yoki ishingiz haqida hech kimga ma'lumot bermaymiz.
- Bizga murojaat qilganingizda, ishingiz to'g'risida aniq ma'lumot berishingiz shart emas.
- Agar siz fin, shved yoki ingliz tillarida so'zlasha olmasangiz, biz doimo ishonchli va malakali tarjimonlar xizmatidan foydalanamiz.



ONLAYN



→ **Riku.fi/trafficking**

→ **Riku.fi/labor-exploitation**



Agar odam savdosi yoki ishingizda ekspluatatsiya holatlari mavjudligidan shubhalansangiz, maxfiy yordam va maslahat olish uchun **help@riku.fi** elektron pochta manziliga xat yozing.



TELEFON ORQALI

Odam savdosi va shunga o'xshash ekspluatatsiya qurbonlari uchun yordam telefoni
+358 40 632 9293

Du–Ju 13:00 dan 16:00 gacha
Qo'ng'iroq qiling yoki xabar yuboring



YUZMA-YUZ



Zarurat tug'ilganda, RIKU ofislaridan birida siz bilan uchrashishimiz mumkin.



Imkoniyat bo'lgan taqdirda, biz sizni politsiya bo'limiga yoki sudga kuzatib borish uchun maxsus tayyorgarlikdan o'tgan xodimni taqdim etamiz.

Siz biz bilan o'z tilingizda bog'lanishingiz mumkin.

RIKU siyosiy yoki diniy aloqalarga ega bo'lmagan nodavlat tashkilot (NNT) hisoblanadi.